
NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI
QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI
2024-YIL YANVAR-MART OYLARI
(DASTLABKI MA’LUMOT)

Dastlabki ma’lumotlar

# 2024- yilning yanvar- mart oylarida Namangan viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2024- yilning yanvar- mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 2 946,4 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 2 489,9 mlrd. so‘mni (104,4 %), o‘rmon xo‘jaligi- 439,3 mlrd. so‘mni (103,6 %), baliqchilik xo‘jaligi - 17,2 mlrd. so‘mni (129,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Namangan viloyatining ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

## Namngan viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilikva ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar-**104,4%**

O‘rmon xo‘jaligi - **103,6%**

Baliqchilik xo‘jaligi - **129,9%**

***Ma'lumot uchun***

*2024- yilning yanvar-mart oylarida Uychi (11,2%) va Mingbuloq (9,8%) i tumanlar qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi bo'yicha viloyatada yetakchi o'rinlarni egalladi.*

## Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar



# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)




2024- yilning yanvar- mart yakunlariga koʻra, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 84,5 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar, 14,9 % i oʻrmon xoʻjaligi, 0,6 % i - baliqchilik xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi. 6,3% i dehqonchilk, 93,7%i-chorvachilk 0,001%i ovchilk va qishloq xoʻjaligi hissasiga toʻgʻri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2024- yilning yanvar- mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Namanagn sh. 543,6 mlrd. so‘m) va Namangan (284,8 mlrd. so‘m) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kosonsoy (180,1 mlrd. so‘m), Uchqo‘rg‘on (179,0 mlrd. so‘m) va Mingbuloq tumalarini (150,3 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan yuqori o‘sish sur’atlari Uchqo‘rg‘on (106,5 %) Kosonsoy (108,0 %) Mingbuloq (109,8 %) va Uychi (111,2 %) tumanlarida kuzatildi. Chortoq. (100,4 %), Yangiqo‘rg‘on tumani (100,5 %), esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar- mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 2 450,7 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 153,5 mlrd. so‘mni (105,1 %), chorvachilik mahsulotlari- 2 297,2 mlrd. so‘mni (104,3 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

6,3%
Dehqonchilik mahsulotlari



93,7
Chorvachilik mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 84,1 % i – dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 11,4 % i - fermer xo‘jaliklariga, 4,5 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2024- yilning yanvar - mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Kosonsoy tumanida (37,2 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Namangan shahrida (99,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Uychi tumanida (15,8 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Namangan shahrida (0,0 %), dehqon tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Kosonsoy tumanida (58,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chust shahrida (0,1 %) qayd etildi.

# Sabzavotlar

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 2 361,0 t. sabzavotlar (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 5,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Namangan viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish (tonna)





# Namangan viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish (o‘sish sur‘ati % da)



# Chorvachilik



2024- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 297,2 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 30,5 ming t. go‘sht (2023- yilning yanvar -martga nisbatan 5,0 % ga ko‘p), 124,2 ming t. sut (3,2 % ga ko‘p), 125,8 mln. dona tuxum (4,3 % ga kop), 303,0 t. jun (1,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 983,1 t. baliq (33,1 % ga ko‘p) ovlandi

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 30,5 ming t. go‘sht (2023- yilning yanvar-martga nisbatan 5,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 84,6 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



# Namanagan viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda tonna) yetishtirish





## Namanagan viloyati bo‘yicha go‘sht (o‘sish sur‘ati %da ) yetishtirish



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 124,2 ming t. sut (2023- yilning yanvar- martga nisbatan 3,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Namanagan viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi tonna





# Namanagan viloyati bo‘yicha sut (o‘sish sur‘ati %da ) yetishtirish



# Tuxum

**Hajmi, mln. dona**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 125,8 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- martga nisbatan 4,3% ga kop) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 51,6 % i fermer xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Namangan viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona





## Namanagan viloyati bo‘yicha tuxum (o‘sish sur‘ati %da ) yetishtirish



# Baliqchilik

**Hajmi, t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 983,1 t. (2023- yilning yanvar - martga nisbatan 33,1 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 49,8 % i fermer xo‘jaligiklariga hissasiga to‘g‘ri kelganini ta‘kidlash lozim.



# Namangan viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024- yining 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,3 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 1,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumyiy sonidan 7,2 % i fermer xo‘jaliklariga, 92,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 0,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 12,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 86,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 0,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 37,8 % i fermer xo‘jaliklariga, 30,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 32,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 779,3 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 22,0 ming taga (2,9 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Namangan viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 253,4 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni - 9,2 ming taga (3,8 %) ko‘paydi.

## Sigirlar












2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, sigirlarning 90,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Namangan viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 824,5 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 19,1 ming taga (2,3 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**





2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 92,1 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Namangan viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 7 233 taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni - 17 taga (0,2 %) ko‘paydi.

## Otlar












2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, otlarning 86,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



## Namangan viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2024- yilning 1-aprel holatiga ko‘ra,parrandalarning umumiy bosh soni 6 647,5 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni - 794,7 ming taga (13,6 %) ko‘paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, parrandalarning 37,8 % i dehqon fermer xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



## Namangan viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 69-227-84-82
- 69-227-84-83